

**BOYSUN MUSIQA FOLKLORI**

*Respublika musiqa va  
san'at kolleji Folklor San'ati  
kafedrası  
katta o'qituvchisi  
Azizbek Sulaymonov*

**Annotatsiya:** *Boysun musiqa folklori aholining ijtimoiy-maishiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bog'liq holda asrlar davomida shakllandi. U o'zbek va tojik xalqlari musiqa madaniyati elementlarini singdirgan holda insonning oilaviy hayoti hamda uning xo'jalik faoliyati, dini va tabiiy hodisalarga dahldor turli vazifalarni o'zida aks ettiradi.*

**Kalit so'zlar:** *Xalq og'zaki ijodi, Boysun musiqa folklori, folklor cholg'ulari, sibizg'a, chanqovuz, sopol nay, ansambl, bolalar folklori*

Folklor san'ati ijrochilari bo'lmish qo'shiqchi va mutridlar o'z ijodlarida estetik, mo'jizali, fusunkor, ijtimoiy va kommunikativ vazifalarni birlashtirganlar. Chunonchi, mavzu jihatidan xilma-xil marosimiy va mehnat qo'shiqlari, dostonlar, yig'ilar, cholg'u kuylari ular ijodining asosi hisoblanadi.

Shu bilan birga Boysun musiqa folklori ma'lum geografik va etnik mintaqalarga mos holda mahalliy tafovutlarga ham ega. Masalan, viloyatning pasttekislik qismidagi aholi madaniyati tog'lik aholi madaniyatidan farq qiladi. Machay (Mastgoh) va Qo'rg'onchada folklor xarakteri marosimiy (jumladan, diniy-marosimiy to'y-qo'shiqlari); Sayrob va Darbandda mehnat (asosan, sut sog'uvchilar va junga ishlov beruvchilar) va alla qo'shiqlari. Boysun shahrida esa mavzu va ijro an'analari xilma-xil bo'lgan xalq qo'shiqlari - qo'shiq, yalla, lapar va ashula janrlarida ijro etiladi. Yakkatol, Olachopon, Pulxokim va Kofirun qishloqlarida birinchi qo'sh, hosil yig'im-terim va ularga ishlov berish bilan bog'liq mehnat qo'shiqlarini ijro etish xarakterlidir, shuningdek, afsungarlik va baxshilik qo'shiqlari uchraydi. Avlod, Sariosiyo, Machay, Qo'rg'oncha qishloqlari va tuman markaziga xos so'fiylar marosimlarida urf bo'lgan —Jahrll, shuningdek —Alasll (xalos) va —Qushnochll cholg'u jo'rligisiz kuylab ijro etiladi. Kuy va qo'shiq ijrosidagi harakat, rasm-rusm, atributika, tuzilma (Qo'rg'onchada qo'biz bilan, Machayda do'mbira bilan) va o'ziga xos ritmik zarblar (Boysun shahrida doira jo'rligida) ularning shamanizm bilan mushtarakligidan darak beradi.

Qadimgi odamning tabiatga ta'sir qiluvchi eng muhim vositalaridan biri afsungarlik qo'shiqlari bo'lgan. Jumladan, bunday qo'shiqlar taqvimiy mehnat kunlari va to'y marosimlarida ijro etilgan. Afsungarlik qo'shiqlarining ma'lum maqsadga yo'nalganligi, ularning musiqiy-she'riy mazmuni va badiiy shakllanishining asosi hisoblanadi. Boysunning taqvimiy mehnat kunlarida aytiladigan afsungarlik qo'shiqlari Navro'z (—Yil boshll,

—Navro'z keldill, —Navro'z ayyomill, —Sumalakll), ekin ekish chog'idagi mehnat jarayonlari (—Shoxmoyillarll, —Qo'sh haydashll, —Don sepdimll), hosil yig'ish (—Maydall, —Oblo barakall,

—Yoziill), mollarni sog'ish chog'ida ularni —avrashll (—Ho'sh-ho'shll, —Turey-tureyll, —Chirey- chireyll) bilan bog'liq. Quyosh (—Oftob chiqdill), yomg'ir (—Sust xotinll), qor (—qor keldill) va

shamol (—Choy momol, —shamol chaqirishl) to'g'risidagi afsungarlik qo'shiqlari alohida guruhga kiradi. —Yo ramazonl yoki —Yo rabbimanl qo'shiqlari sho'x-quvnoq ohanglar bilan xalk-musiqa ijodining o'ziga xos shaklini ifoda etadi.

Boysun xalq musiqa ijodi, xususan, ijro san'ati uchun xos bo'lgan tafovutlar tuman hududida yashovchi xalqlar - o'zbeklar (ularning ko'pchiligini qo'ng'iroq, qatag'on, barlos, Juz, qipchoq va hokazo urug'lar tashkil etadi.) va tojiklarning o'zaro lahjaviy ta'sirlari bilan bog'liq. Aholining talay qismi tojiklardan iborat bo'lgan qishloqlarda tojik xalq qo'shiqlari ijro etilib, ular, asosan, to'y va xalq sayillarida yangraydi. Shuningdek, mazmun va ijro bo'yicha xilma-xil bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlari tuman musiqa hayotida salmoqli o'rinni egallaydi. Boysun qishloqlarida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar (2003-yil yoz va kuzi) shuni ko'rsatadiki, hatto tojiklarning to'ylarida o'zbek to'y marosimiy qo'shiqlari ijrosiga ko'proq o'rin beriladi.

Boysunning zamonaviy to'y-qo'shiqlari turkumi rango-rang va xilma-xil. Beshik- to'y, Sunnat (o'g'il) to'y, Muchal to'yi, Nikoh to'yi. Ularda musiqa, o'yin raqslar, tomoshalar va xalq o'yinlari (Ko'pkari, kurash, piyoda uloq va x.k.) omixta bo'lib ketgan. Ularning har biri xalq cholg'u ijodida yorqin voqea hisoblanib, uning ahamiyati shundaki, avvalo, keng xalq ommasi an'anaviy yodaki san'atga, zamonaviy musiqa ijodigagina emas, balki —Zehn bilan tinglashl ni tarbiyalashga ham zo'r bermoqda. To'y qo'shiqlari - doimiy musiqa taomili moyasi, kundalik estetik talab in'ikosidir.

Binobarin, shuni ta'kidlash joizki, to'y-hashamlar musiqasiga asos bo'lgan ko'pgina qo'shiqlar ishqiy, o'ynoqi qo'shiqlarga singib ketgan. Ammo, shunga qaramay an'analarni muhofaza qilish ma'nosida —Yor-yorl, —Hazor alil yoki —Kelin saloml, —Al-muborakl, —Kelin va kuyov qutlovil va x.k. lar barqaror.

Dafn-marosimi qo'shiqlari - —Yig'il, —Go'yandal hali-hanuz Boysun kundalik hayotida keng iste'molda bo'lib kelmoqda. Motam ohangidagi —Go'yandal alohida qo'shiq shakliga ega. Hayotdagi u yoki bu holatni yoki hodisani hikoya qilgan holda qo'shiq ijrochining unga bo'lgan munosabati, his-tuyg'usi va kayfiyatini izhor etgan. Yaqin-yaqingacha —Go'yandal guruh bo'lib ijro etiluvchi —Sadrl (U xuddi qo'shiq ohangiga mos raqs harakatlari bilan uyg'unlashib ketadi.) Marosim holatini qayta gavalantirib, zaruriy marosimiy -hissiy ohang yaratadi.

Faqat ayollar emas, goho erkaklar ham ijro etadigan —Allal ko'pincha yakka tarzda badixa shaklida namoyon bo'ladi. Cho'zib aytiladigan ishqiy qo'shiqlar ham o'ziga xos, masalan, cholg'u jo'rligisiz —og'ir ohangdal tuyaning qadam tashlashini eslatuvchi karvonchilar qo'shig'i —tuya qadaml shular jumlasidandir.

Boysun cholg'u sozlari ichida barcha cholg'u guruhlari - torli, puflab chalinadigan va zarbli cholg'ular ishtirok etadi. Ishqalab chalinadigan torli cholg'u asboblari ham boy va rang-barang - do'mbira (ular tut, yong'oq, o'rik, nok, yog'ochlaridan turli kattalikda yasaladi.), dutor, kalta dutor, chiltor; torli-zarbli cholg'ular - temir chanqovuz (ilgari uning yog'och va suyakdan ishlangan turlari ham bo'lgan) eng keng tarqalgan cholg'u asboblaridir. Puflab chalinadigan musiqa asboblariga surnay, cho'pon nayi, (ko'ndalang, yog'ochdan yasalgan), g'ajir yoki suyak nay (ko'ndalang, suyakdan yasalgan), sibizg'a (ko'ndalang, qamishdan yasalgan), nay chuvulloq (ko'ndalang, yoki dumaloq-chumchuo'li qushga

o'xshagan), loydan yasalgan kiradi. Zarbli cholg'ular orasida doira yoki dapp eng ommabopidir. Bu musiqa asboblari Duoba, Omonxona, Pulxokim, Sayrob, Qushqoq, Sariosiyo, Dashtig'oz qishloqlarida, Boysun shahrining o'zida sozgar ustalar tomonidan yasaladi, ular Boysun cholg'u kuylari an'analari davomchilari ham hisoblanadilar (sozli o'yinlar, usullar, xabarlar, sahna tomoshalari).

Boysun dostonchiligi ichidan tanlab olingan har bir xalq qo'shig'i yoki terma - bu xalq tarixining, hayotining va turmushining o'y va orzularining, dunyo qarashi va psixologiyasining timsoli - hozirgi kunda ham u —Boysun|| xalq ansambli, —Quralay|| bolalar ansambli, Avlod, Dashtig'oz kabi qishloqlarning xotin-qizlar ansabillari misolidagi fol'klor- etnografik ansambillari tufayli yashashda davom etmoqda, ular milliy an'analar va musiqiy- she'riy fol'klorni saqlab qolish va targ'ib qilish bo'yicha talay ishlar olib bormoqdalar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. Mirzaev, B. Sarimsoqov —O'zbek xalq poetik ijodil Toshkent. O'qituvchi. y 1986 il.
2. F. Karomatov —O'zbek xalq musiqa merosil Toshkent. G'. G'ulom. 1985 yil.
3. N. Qosimov —Musiqqa folklor ijrochiligil Toshkent. G'. G'ulom. 2003 yil.
4. O'. Toshmatov —O'zbekiston nomoddiy madaniy merosil Toshkent. G'.G'ulom. 2015 yil.
5. M. Alaviya —O'zbek xalq marosim qo'shiqlaril Toshkent. FAN. 1974 yil.
6. S. Yo'ldosheva, G. Sattorova —Folklor-etnografik xalq ansambllaril Toshkent. O'qituvchi. 2007 yil.